



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 26-dekabr

188-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona tuman hududida elektr ta’minotida mavjud bo‘lgan nosozliklarni ta’mirlash munosabati bilan ayrim ko‘chalarda transport harakatini cheklash to‘g‘risida

Farg‘ona tumani “Qurilish” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi nosoz holatga kelib qolgan yog‘och tayanchlar o‘rniga yangi temir beton tayanchlar o‘rnatish munosabati bilan aholi va transport harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida Farg‘ona tuman elektr ta’minoti korxonasining 2025-yil 1-noyabr kunidagi 344-sonli so‘rov xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21¹-moddalariga asosan,

1. Farg‘ona tuman elektr ta’minoti korxonasining 2025-yil 11-noyabr kunidagi 344-sonli so‘rov xati inobatga olinsin.

2. Farg‘ona tuman Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi rahbari (I.Xoldorov)ga joriy yilda:

Farg‘ona tumani “Qurilish” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida avtomobil yo‘lida transport vositalarining harakati vaqtinchalik cheklansin;

yo‘lning yopilgan qismida avtotransport vositalarini vaqtincha to‘xtab turish joylari va muqobil yo‘nalishlar tashkil etish vazifalari topshirilsin.

3. Farg‘ona tumani hokimligi Axborot xizmati ushbu farmoyish bilan avtomobillar harakati cheklanayotgan ko‘chalar haqida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritish choralari ko‘rsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi rahbari (I.Xoldorov) zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T